



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraxon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIALOGIK NUTQINI XALQ ERTAKLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH



Seitmuratova Venera Jumamuratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida katta o’qituvchisi

Abdurafova Muxayyo Xabibullo qizi

MT-25-01 guruhi, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda ertaklardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ertaklarning bolalarda nutqiy faollikni oshirish, savol-javob jarayonida faol ishtirok etishga undash, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda so’z boyligini kengaytirishdagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda dialogik nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, interfaol usullar va mashg’ulot shakllari tavsiya etilgan. Maqolada ertaklar asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilib, ularni maktabgacha ta’lim jarayonida samarali qo’llash bo’yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, metodistlar hamda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun mo’ljallangan.

Kalit so’zlar: maktabgacha yosh, dialogik nutq, ertaklar, nutqni rivojlantirish, muloqot madaniyati, nutqiy faollik, interfaol metodlar.

Abstract: This article comprehensively examines the theoretical foundations and practical possibilities of using fairy tales in the development of dialogic speech in preschool children. The study analyzes the pedagogical significance of fairy tales in enhancing children’s speech activity, encouraging active participation in question-and-answer interactions, developing communication culture, and expanding vocabulary. In addition, effective methods, interactive techniques, and forms of activities aimed at developing dialogic speech are recommended, taking into account the age and individual characteristics of children. The article reveals the educational and developmental potential of fairy tale-based activities and provides practical recommendations for their effective implementation in the preschool education process. The article is intended for preschool educators, methodologists, and specialists working in this field.

Key words: preschool age, dialogic speech, fairy tales, speech development, communication culture, speech activity, interactive methods.

Аннотация: В статье всесторонне раскрываются теоретические основы и практические возможности использования сказок в развитии диалогической речи у детей дошкольного возраста. В ходе исследования проанализировано педагогическое значение сказок в повышении речевой активности детей, стимулировании их участия в вопросно-ответном общении, формировании культуры общения и расширении словарного запаса. Кроме того, с учётом возрастных и индивидуальных особенностей детей представлены эффективные методы, интерактивные приёмы и формы занятий, направленные на развитие диалогической речи. В статье раскрываются образовательные и воспитательные возможности занятий, организованных на основе сказок, а также даны практические рекомендации по их эффективному применению в процессе дошкольного образования. Статья предназначена для воспитателей дошкольных образовательных организаций, методистов и специалистов, работающих в данной сфере.

Ключевые слова: дошкольный возраст, диалогическая речь, сказки, развитие речи, культура общения, речевая активность, интерактивные методы.

KIRISH

Inson nutqini rivojlantirishdagi metodik nazariy asoslar bular - til, nutq va nutqiy faoliyat hisoblanadi. Til - bu ijtimoiy hodisa bo’lib, insonlarning bir-biriga muloqot qilish imkonini beradi. O’zbekiston Respublikasida yashayotgan turli xil millat vakillarining o’z ona tili va milliy o’ziga xos sifatleri bor bo’lib bular ma’naviy madaniyatining yorqin ko’rsatkichi hisoblanadi.



Til - tafakkur bilan bevosita bog'langan holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarda balki, jamiyatda ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo'ladi. So'zning insonga, uning xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri barchaga yaxshi ma'lum. Til bilan tafakkur bir-biriga juda ham bog'liq ekan, tafakkur - obyektiv borliqning intihosi, til esa – uni nomoyish etish va ifoda usuli sifatida shuningdek, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. Insonlar o'rtasida so'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi.

Dialogik nutq – bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida sodir bo'ladigan fikr almashinuvi va og'zaki muloqot shaklidir. Ushbu nutq turi bola tomonidan tinglash, tushunish, savol berish, fikr bildirish va javob qaytarish kabi muhim kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi. Dialogik nutq yordamida bola nafaqat tilni egallaydi, balki muloqot madaniyatiga rioya qilish, fikrini izchil va mantiqiy tarzda ifoda etish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Shu sababli dialogik nutqni rivojlantirish faqat til o'rgatish emas, balki bola shaxsining psixologik va pedagogik jihatdan kamol topishida ham muhim rol o'ynaydi. Xalq ertaklari esa maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib, ular orqali bolalar so'z boyligini oshiradi, muloqot madaniyatini egallaydi va dialogik nutq elementlarini o'zlashtiradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.¹ Bunda nutq rivoji va til qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik, bola nutqining rivojlanishi, eng avvalo, uning til qobiliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni bola so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, grammatik tuzilmalarni tushunishi va ulardan foydalanishi uchun til imkoniyatlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur. Nutq faqat so'z boyligi bilan emas, balki muloqot jarayonida rivojlanadi. Jumladan nutqni rivojlantirish muloqot shakllarini rivojlantirish orqali amalga oshishi aytilmoqda. Bu esa dialog, savol-javob, hikoya qilish kabi faol nutqiy faoliyatlarni nazarda tutadi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida boglanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir"-degan edi.² A.N. Leontev ta'rifiga ko'ra, nutqiy rivojlanish – bu bolaning fikrlashi va ongining o'sishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan, chuqur va murakkab sifat jihatidan o'zgarishlar jarayonidir. Ushbu yondashuv nutqni rivojlantirishda mexanik mashqlardan ko'ra, ongli muloqot va fikrlash faoliyatiga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko'rsatadi.

Dialog bu- ikki yoki bir necha: so'zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog'liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi.³ Dialog suhbat - bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqoti hisoblanib unda bola o'z fikrlarini mustaqil bayon qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish asosan ikki shaklda amalga oshiriladi:

1. Erkin nutqiy muloqotlarda;
2. Maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog - bu bolalarning erkin nutqiy muloqotida paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishda va to'g'ri talaffuz qilishiga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish hisoblanadi.

Dialogik nutqni bolaga o'rgatish va olib borish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida va tengdoshlari bilan fikr almashish paytida ro'y beradi. "Bolalarda dialogik ravon nutqni rivojlantirish asosan maxsus mashg'ulotlarda suhbat metodi va imitatsiya metodi asosida olib boriladi. Bu metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik suhbatlari (so'zlashish) usullari;
2. Teatrlashtirish usullari (ertaklarni sahnalashtirish, qayta aytib berish)"⁴.

"Nutq tabiatan dialogikdir, chunki odatda, har doim kimgadir (tinglovchi yoki so'zlashuvchining o'zi) murojaat qilinadi. Shu nuqtai nazardan, muloqotning eng keng tarqalgan shakli dialog deb ta'kidlanadi. Dialogik muloqotning tabiati so'zlashuvchilar o'rtasidagi munosabatlarga va o'zaro ta'sir atrofida o'ziga xos holat-

1 Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: "Barkamol fayz media", 2018, - 432 b. 11-b.

2 Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. – 1972. - № 9. С.95

3 Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: "Barkamol fayz media", 2018, - 119 b.

4 Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: "Barkamol fayz media", 2018, - 432 b. 119b.




larga qarab o'zgaradi. Bunga turli munozaralar, jumladan, biznes va tasodifiy, fikr almashish hamda kundalik suhbatlar kiradi. Lingvistik nuqtai nazardan, dialogning barcha shakllari qiziqarli hisoblanadi”.⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dialogik nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va usullar

Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish ularning shaxsiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bosqichlardan biri hisoblanadi. Dialogik nutq – bu bola muloqotga kirishishi, suhbat chog'ida o'z fikrini bayon eta olishi, savollarga javob bera bilishi va boshqalarni tinglab, o'z fikrini ularga moslashtira olishini bildiradi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda tarbiyachi turli pedagogik metod va usullardan foydalangan holda bolalar bilan ishlaydi.



1-rasm: Dialogik nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar

Dialogik nutqni rivojlantirish usullari bolalarning yoshi, individual psixologik xususiyatlari va qiziqishlariga qarab tanlanishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dialogik nutqni rivojlantirishda faoliyatga asoslangan metodlar (suhbat, rolli o'yinlar, ko'rgazmali, savol-javob va boshqa) dan foydalanish eng samarali hisoblanadi.

Dialogik nutqni rivojlantiruvchi usullar:

1. **Qayta hikoyalash:** bolani eshitganini eslab, mazmunan izchil so'zlab berishga undaydi. Bunda masalan bola eshitgan yoki ko'rgan ertakmi, hikoyami, multfilmlar kabi asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish.
2. **Rolga kirish:** hayvon, qahramon yoki kasb egasi sifatida gapirish – ijodiy nutqni faollashtiradi. Masalan: tish shifokori va bemor roli, multfilm qahramonlari v.b.
3. **So'zni davom ettirish:** boshlang'ich gapdan keyin o'zi davom ettiradi: "Kecha ota-onam bilan hayvonot bog'iga borganimda"... , "Bugun bog'chaga kelganimda..." ,
4. **Juftlikda suhbat:** "Do'kon", "Telefon" kabi juftliklarda muloqotga kirishadi.
5. **Savol tuzish:** faqat javob emas, savol berishga ham o'rgatish – bu nutqni ikki yo'nalishda rivojlantiradi. Bolalar bir-birlari bilan syujetli rol o'yinlarda, teatrlashtirilgan o'yinlarda v.h. o'rgatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish samarali ekanligini ko'rsatdi. Tajriba mashg'ulotlari jarayonida bolalarning nutqiy faolligida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Avvalo, bolalarning dialogga kirishish faolligi oshgani aniqlandi. Tadqiqot boshida ayrim bolalar savollarga qisqa yoki bir so'z bilan javob bergan bo'lsa, mashg'ulotlar yakuniga kelib ular suhbatni davom ettirishga, o'z fikrini izchil bayon etishga harakat qila boshladilar. Bu holat bolalarda muloqotga bo'lgan qiziqishning ortganidan dalolat beradi.

Shuningdek, bolalarda savollarga to'liq, mazmunli va mantiqan asoslangan javob berish ko'nikmalari shakllandi. Ertak mazmuni asosida berilgan savollar bolalarni fikrlashga, voqealar ketma-ketligini eslab qolishga va

5 Румянцева Е.Н. Диалогическое общение как объект лингвистического исследования. Ученые записки Орловского государственного университета. №1 (64), 2015. – С. 189-191.



o'z munosabatini bildirishga undadi. Natijada bolalarning nutqi yanada izchil va tushunarli bo'la boshladi. Ertak qahramonlari nomidan gapirish va rolli o'yinlarda ishtirok etish orqali bolalarda nutqiy ishonch sezilarli darajada kuchaydi. O'zini qahramon roliga tasavvur qilgan bola nutqiy xatolardan qo'rqmasdan gapirishga intildi, bu esa uning erkin nutqiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida bolalarning so'z boyligi kengaygani, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish malakalari rivojlangani kuzatildi. Ertaklarda uchraydigan yangi so'z va iboralar bolalarning faol lug'atiga kirib bordi, ular ushbu so'zlarni kundalik muloqotda qo'llay boshladilar. Ayniqsa, rolli o'yinlar jarayonida bolalar o'z fikrlarini erkin, mustaqil va ifodali tarzda bayon eta boshlaganligi muhim natija sifatida qayd etildi. Bu esa xalq ertaklari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar dialogik nutqni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda xalq ertaklaridan foydalanish samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Xalq ertaklari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda nutqiy faollikni oshirish, muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish hamda erkin va ishonchli nutqni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida bolalarning dialogga kirishish faolligi oshgani, savollarga to'liq va mazmunli javob berish malakalari rivojlangani, shuningdek, ertak qahramonlari obrazlari orqali nutqiy ishonch kuchaygani aniqlandi. Bundan tashqari, bolalarning so'z boyligi kengayib, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali tashkil etilgan faoliyat bolalarning mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin ifodalashga imkon yaratdi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dialogik nutqni rivojlantirish mashg'ulotlarida xalq ertaklaridan tizimli va maqsadli foydalanish;
2. Ertaklar asosida rolli o'yinlar, savol-javob va dramatizatsiya usullarini keng qo'llash;
3. Tarbiyachilar uchun xalq ertaklari orqali nutqni rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqish;
4. Har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni kuchaytirish;
5. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda dialogik nutq bilan bir qatorda monologik nutq va bog'lanishli nutqni rivojlantirish masalalarini ham chuqurroq o'rganish.

Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, ayniqsa dialogik nutqini rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyatga ega bo'lib, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi : darslik. – Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. – 432 b.
2. Леонтьев А. Н. Проблема деятельности в психологии // Вопросы философии. – 1972. – № 9. – С. 95.
3. Румянцева Е. Н. Диалогическое общение как объект лингвистического исследования // Ученые записки Орловского государственного университета. – 2015. – № 1(64). – С. 189–191.
4. Klicheva Z. P., Seitmuratova V. J. Mektepke shekemgi jastag'ı balalardıń tayanısh kompetenciya ların qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti // Muǵallım hám uzluksız bilimlendi riw. – 2025. – № 2/3. – B. 302–309. – ISSN 2181-7138.
5. Seitmuratova V. J. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini ertaklar asosida rivojlantirish // Экономика и социум. – 2025. – № 6(133). – B. 824–830. – ISSN 2225-1545.
6. Seitmuratova V. J. Development of creative thinking of children aged 5–7 through Karakalpak folk tales and children's songs // International Journal of Pedagogics. – 2024. – Vol. 4, № 4. – P. 101–104. – ISSN 2771-2281.
7. Maxmutazimova Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3, № 1.
8. Maxmutazimova Y. R., Sobirova M. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda texnik ijodkorlik va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi // Inter Education & Global Study. – 2025. – № 1. – B. 130–135.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.